



AKTUAR MOLIYA VA BUXGALTERIYA HISOBI ILMIY JURNALI

Vol. 6 Issue 06 | pp. 138-147 | ISSN: 2181-1865

Available online <https://finance.tsue.uz/index.php/afa>

IJTIMOY SOLIQ IMTIYOZLARI VA STAVKALARINING PENSIYA JAMG'ARMASI DAROMADLAR BAZASIGA TA'SIRI TAHLILI



Sherjonov Doniyor Saparbayevich

Tashkent International University mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasida ijtimoiy soliq stavkasining 25 foizdan 12 foizgacha pasaytirilishi hamda sektorlar kesimida berilgan soliq imtiyozlarining Pensiya jamg'armasi daromadlar bazasiga ta'siri tahlil qilinadi. Tadqiqotda ijtimoiy soliq tushumlarining YAIMga nisbatan dinamikasi, erkin iqtisodiy zonalar (EIZ), texnoparklar va IT sohasi uchun qo'llanilgan 0% stavkaning fiskal oqibatlari o'rganildi. Hisob-kitoblarga ko'ra, 53,2 mingta korxonaga berilgan imtiyozlar sababli Pensiya jamg'armasiga 1,7 trln so'm mablag' tushmagan, jumladan IT sektoridagi 0% stavka ta'siri 893 mlrd so'mni tashkil etgan. Muammoni hal qilish maqsadida minimal ijtimoiy soliq bazasini joriy etish orqali yiliga qo'shimcha 507 mlrd so'm tushum shakllantirish taklif etiladi.

Kalit so'zlar: ijtimoiy soliq, soliq imtiyozlari, Pensiya jamg'armasi, daromadlar bazasi, EIZ, texnopark, fiskal barqarorlik, ijtimoiy sug'urta.

Аннотация. В данной статье анализируется влияние снижения ставки социального налога в Республике Узбекистан с 25% до 12%, а также налоговых льгот, предоставленных отдельным секторам экономики, на доходную базу Пенсионного фонда. В рамках исследования изучена динамика поступлений социального налога по отношению к валовому внутреннему продукту (ВВП), а также фискальные последствия применения нулевой ставки (0%) для резидентов свободных экономических зон (СЭЗ), технопарков и организаций сферы информационных технологий. Результаты расчетов показывают, что вследствие предоставления налоговых льгот 53,2 тыс. предприятиям в Пенсионный фонд не поступило 1,7 трлн сумов, из которых 893 млрд сумов приходится на применение нулевой ставки в ИТ-секторе. В целях решения данной проблемы предлагается внедрение минимальной базы для исчисления социального налога, что позволит обеспечить дополнительные поступления в размере 507 млрд сумов ежегодно.

Ключевые слова: социальный налог, налоговые льготы, Пенсионный фонд, доходная база, свободные экономические зоны, технопарк, фискальная устойчивость, социальное страхование.

Abstract. This article examines the impact of reducing the social tax rate from 25% to 12% and granting sectoral tax incentives on the revenue base of the Pension Fund of Uzbekistan. The study analyzes social tax revenues by sector, investment incentives provided to free economic zones and technoparks, and their dynamics relative to GDP. The results show that due to tax privileges granted to 53.2 thousand enterprises, approximately 1.7 trillion UZS did not accrue to the Pension Fund, including 893 billion UZS related to the 0% social tax rate in the IT sector. To address the

imbalance between investment policy and social insurance principles, the introduction of a minimum social tax base is proposed, which could generate an additional 507 billion UZS annually.

Keywords: *social tax, tax incentives, Pension Fund, revenue base, free economic zones, fiscal sustainability, social insurance.*

KIRISH

So'nggi yillarda O'zbekistonda iqtisodiyotni liberallashtirish, investitsion muhitni yaxshilash va biznes subyektlari uchun qulay sharoit yaratish maqsadida soliq siyosatida keng ko'lamli tizimli islohotlar amalga oshirildi. Mazkur islohotlarning muhim yo'nalishlaridan biri ijtimoiy soliq stavkasini optimallashtirish bo'ldi. Xususan, 2019 yildan boshlab ijtimoiy soliq stavkasi 25 foizdan 12 foizgacha pasaytirildi¹. Ushbu qaror ish beruvchilar uchun mehnat xarajatlarini kamaytirish, rasmiy bandlikni kengaytirish va yashirin iqtisodiyot ulushini qisqartirishga qaratilgan edi. Soliq yukining kamaytirilishi qisqa muddatda iqtisodiy faollikni oshirish, investitsion muhitni yaxshilash hamda yangi ish o'rinlarini yaratishga ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Biroq ijtimoiy soliqning pasaytirilishi bir vaqtning o'zida ijtimoiy sug'urta tizimi, xususan Pensiya jamg'armasining daromadlar bazasiga ham bevosita ta'sir ko'rsatadi. Chunki ijtimoiy soliq tushumlari pensiya tizimining asosiy moliyaviy manbalaridan biri hisoblanadi.

Bundan tashqari, investitsiyalarni jalb etish va yuqori texnologiyali sohalarni rivojlantirish maqsadida erkin iqtisodiy zonalar (EIZ), texnoparklar va IT sektori uchun qo'shimcha soliq imtiyozlari joriy qilindi. Ayrim yuqori daromadli sohalarda ijtimoiy soliq stavkasining 0 foizgacha tushirilishi investorlar uchun sezilarli rag'bat bo'ldi. Natijada, IT sektori va texnologik klasterlarda yuqori sur'atdagi o'sish kuzatildi. Biroq ushbu imtiyozlar ijtimoiy sug'urta tizimining barqarorlik tamoyillari bilan ma'lum darajada nomutanosiblikni yuzaga keltirishi mumkin. Pensiya tizimi taqsimlovchi (PAYG – Pay-As-You-Go) model asosida faoliyat yuritadi², ya'ni joriy ishlovchilar tomonidan to'lanadigan badallar hisobidan amaldagi pensionerlarga to'lovlar amalga oshiriladi. Demak, ijtimoiy soliq stavkalarining pasaytirilishi yoki keng ko'lamli imtiyozlarning berilishi bevosita Pensiya jamg'armasining daromadlar bazasini toraytiradi. Bu esa uzoq muddatda defitsitning ortishiga va davlat byudjetidan transfertlarga qaramlikning kuchayishiga olib kelishi mumkin.

Ayniqsa yuqori daromadli IT sektorida 0 foizlik ijtimoiy soliq stavkasining qo'llanilishi ijtimoiy sug'urta tamoyillari nuqtai nazaridan muhim savollarni keltirib chiqaradi. Bir tomondan, mazkur chora innovatsion iqtisodiyotni rag'batlantiradi; ikkinchi tomondan esa, ushbu sohada ishlayotgan xodimlar kelgusida pensiya huquqiga ega bo'lishadi, biroq ular tomonidan jamg'armaga badal to'lanmaydi yoki juda past darajada to'lanadi. Bu holat tizim ichida moliyaviy nomutanosiblikni keltirib chiqarishi mumkin. Shu bois ijtimoiy soliq siyosatini baholashda faqat investitsion samaradorlik emas, balki ijtimoiy sug'urta tizimining uzoq muddatli fiskal barqarorligi ham inobatga olinishi zarur. Soliq imtiyozlari iqtisodiy o'sish uchun rag'bat vazifasini bajarishi mumkin, biroq ular pensiya tizimi daromatlari qisqarishi hisobiga amalga oshirilayotgan bo'lsa, bu fiskal

¹https://www.norma.uz/oz/qonunchilikda_yangi/1_01_2019_yildan_jshdsning_12_procentov_lik_yagona_stavkasi_12_procentov_lik_yait_stavkasi_joriy_etiladi_pjga_sugurta_badallari_bekor_qilinadi

² Barr & Diamond, Holzmann & Hinz, Holzmann & Hinz

xavflarni kuchaytiradi. Mazkur tadqiqotning maqsadi ijtimoiy soliq stavkalari va berilgan imtiyozlarning Pensiya jamg'armasi daromadlar bazasiga ta'sirini miqdoriy jihatdan tahlil qilish, sektorlar kesimida yo'qotilgan tushum hajmini aniqlash hamda investitsion siyosat va ijtimoiy sug'urta tamoyillari o'rtasida muvozanatni ta'minlash bo'yicha amaliy takliflar ishlab chiqishdan iborat. Ushbu masalaning chuqur o'rganilishi fiskal barqarorlikni ta'minlash va pensiya tizimini uzoq muddatli asosda mustahkamlash uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Ijtimoiy sug'urta tizimlari va soliq siyosati o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik masalasi xalqaro iqtisodiy adabiyotlarda keng o'rganilgan. Ayniqsa, ijtimoiy badal stavkalarining pasaytirilishi, soliq imtiyozlari berilishi va ularning fiskal barqarorlikka ta'siri bo'yicha ko'plab empirik tadqiqotlar mavjud.

Feldstein (1974) ijtimoiy sug'urta tizimining makroiqtisodiy ta'sirini tahlil qilib, badal stavkalarining o'zgarishi mehnat taklifi va kapital jamg'arilishiga bevosita ta'sir qilishini ko'rsatgan. Uning fikricha, ijtimoiy soliq yukining kamaytirilishi qisqa muddatda iqtisodiy faollikni oshirishi mumkin, biroq uzoq muddatda pensiya majburiyatlarini moliyalashtirish muammosini kuchaytirishi ehtimoli mavjud.

Barr va Diamond (2008) ijtimoiy sug'urta tizimining barqarorligi daromadlar bazasining kengligi va badal intizomiga bog'liqligini ta'kidlaydilar. Ularning yondashuviga ko'ra, soliq imtiyozlari qisqa muddatli investitsion rag'bat bo'lsa-da, agar ular ijtimoiy sug'urta fondlari hisobidan moliyalashtirilsa, tizim ichki muvozanatini buzishi mumkin³.

Schneider va Enste (2000) yashirin iqtisodiyot hajmining kengligi ijtimoiy sug'urta tushumlariga salbiy ta'sir ko'rsatishini asoslab berganlar. Ularning tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, past soliq stavkalari rasmiy bandlikni oshirishi mumkin, biroq imtiyozlar haddan tashqari kengaytirilsa, fiskal samaradorlik pasayadi⁴.

OECD (2021, 2023) hisobotlarida ijtimoiy sug'urta badallari va investitsion imtiyozlar o'rtasidagi muvozanat masalasi muhim fiskal omil sifatida qayd etiladi. OECD tajribasi shuni ko'rsatadiki, ayrim mamlakatlarda nol yoki juda past ijtimoiy badal stavkalari vaqtinchalik qo'llanadi va ular minimal sug'urta bazasi bilan kompensatsiya qilinadi. Bu mexanizm ijtimoiy sug'urta tizimi barqarorligini saqlashga xizmat qiladi⁵.

World Bank (2023) tomonidan e'lon qilingan davlat xarajatlari sharhida investitsion imtiyozlarning fiskal samaradorligi doimiy ravishda baholanib borilishi zarurligi ta'kidlanadi. Hisobotda soliq imtiyozlari "yashirin byudjet xarajati" sifatida qaralishi va ularning ijtimoiy fondlarga ta'siri hisob-kitob qilinishi lozimligi qayd etilgan.

Mahalliy tadqiqotlarda ham ijtimoiy soliq va pensiya tizimi o'rtasidagi bog'liqlik masalasi o'rganilgan. Toshmatov (2022) ijtimoiy soliq stavkasining pasaytirilishi pensiya jamg'armasi daromadlar bazasini qisqartirish xavfini keltirib chiqarishini qayd etadi. Berkinov va Qalimbetov (2021) esa pensiya tizimi barqarorligi badal bazasining kengligi va imtiyozlar siyosatining muvozanatli yuritilishiga bog'liqligini ta'kidlaydi. Biroq mavjud adabiyotlarda O'zbekiston sharoitida ijtimoiy soliq stavkasining 25 foizdan 12

³ Barr va Diamond

⁴ Schneider & Enste

⁵ OECD hisobotlari

foizgacha pasaytirilishi hamda sektorlar kesimida berilgan imtiyozlarning Pensiya jamg'armasi daromadlar bazasiga miqdoriy ta'siri bo'yicha kompleks empirik baholash yetarli darajada ishlab chiqilmagan. Ayniqsa, erkin iqtisodiy zonalar va IT sektoridagi nol stavkaning jamg'arma daromadlariga real fiskal ta'siri bo'yicha aniq hisob-kitoblar kam uchraydi. Mazkur maqola aynan shu ilmiy bo'shliqni to'ldirishga qaratilgan bo'lib, ijtimoiy soliq siyosatining investitsion rag'bat va ijtimoiy sug'urta barqarorligi o'rtasidagi muvozanatga miqdoriy yondashuv asosida baho beradi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda ijtimoiy soliq stavkalari va berilgan imtiyozlarning Pensiya jamg'armasi daromadlar bazasiga ta'siri sektorlar kesimida dinamik va tarkibiy tahlil usullari yordamida o'rganildi. Tahlil jarayonida 2018–2024 yillar oralig'idagi rasmiy statistik ma'lumotlardan foydalanildi hamda stavka o'zgarishidan oldingi va keyingi davrlar o'zaro solishtirildi.

Birinchi bosqichda ijtimoiy soliq tushumlarining YAIMga nisbatan ulushi aniqlanib, stavka 25 foizdan 12 foizgacha pasaytirilganidan so'ng tushumlar dinamikasi baholandi. Bu orqali stavka optimallashtirilishining umumiy fiskal ta'siri aniqlashtirildi.

Ikkinchi bosqichda erkin iqtisodiy zonalar (EIZ), texnoparklar va boshqa maxsus rezidentlik maqomiga ega subyektlarga berilgan imtiyozlar tahlil qilindi. Ularning ijtimoiy soliq to'lovlari hajmi, imtiyozli stavkalar va umumiy badal bazasiga qo'shgan hissasi o'rganildi.

Uchinchi yo'nalishda IT sektorida qo'llanilgan 0 foizlik ijtimoiy soliq stavkasining fiskal oqibatlari baholandi. Yuqori maoshli xodimlar band bo'lgan ushbu sohada nol stavka qo'llanishi natijasida Pensiya jamg'armasiga tushmay qolgan mablag'lar miqdori hisoblab chiqildi.

Yo'qotilgan daromadlar miqdori quyidagi hisoblash formulasi asosida aniqlandi:

Mazkur hisob-kitoblarda soliq bazasi sifatida tegishli sektor yoki imtiyozdan foydalanuvchi korxonalarining umumiy ish haqi fondi qabul qilindi. Ya'ni, ijtimoiy soliq

$$LT = (t_s - t_i) \times B$$

hisoblanadigan asosiy baza – xodimlarga to'langan yalpi mehnat haqi miqdori hisobga olindi.

Olingan natijalar ikki xil ko'rinishda baholandi:

- mutlaq miqdorda (mlrd yoki trln so'mda), bu bevosita Pensiya jamg'armasiga tushmay qolgan mablag' hajmini ifodalaydi;
- YAIMga nisbatan foiz hisobida, bu esa yo'qotilgan tushumning makroiqtisodiy ahamiyatini ko'rsatadi.

Bunday kompleks yondashuv ijtimoiy soliq siyosatining investitsion rag'batlantirish maqsadlari hamda ijtimoiy sug'urta tizimi moliyaviy barqarorligi o'rtasidagi muvozanatga ta'sirini tizimli va miqdoriy jihatdan baholash imkonini berdi.

TAHLIL VA NATIJALAR MUHOKAMASI

O'tkazilgan tahlillar ijtimoiy soliq stavkasining 25 foizdan 12 foizgacha pasaytirilishi Pensiya jamg'armasi daromadlar bazasining sezilarli darajada torayishiga olib kelganini ko'rsatadi. 1-jadvalda ko'rsatilganidek, soliq imtiyozlaridan foydalanuvchi

53,2 mingta korxonaga bo'yicha jamg'armaga 1,7 trln so'm mablag' tushmagan. Shundan 893 mlrd so'mi IT sektoridagi 0% stavka qo'llanilishi bilan bog'liq. Bu raqamlar shuni ko'rsatadiki, umumiy yo'qotilgan tushumning yarmidan ortig'i yuqori qo'shilgan qiymat yaratadigan, yuqori ish haqi to'lanadigan IT sektoriga to'g'ri keladi.

1-jadval.

Ijtimoiy soliq imtiyozlari sababli yo'qotilgan tushum (2025-yil prognozi)⁶

№	Ko'rsatkichlar (Sektor va toifalar nomi)	Imtiyozdan foydalanuvchi korxonalar soni	Qo'llaniladigan ijtimoiy soliq stavkasi	Yillik imtiyoz summasi (Pensiya jamg'armasiga tushmay qoladigan mablag')
1	Texnopark rezidentlari (IT va innovatsiyalar)	1 475 ta	0 %	893 mlrd. so'm
2	Alohida hududlarga (erkin iqtisodiy va chekka hududlar) berilgan imtiyozlar	30 085 ta	1 %	165 mlrd. so'm
3	Boshqalar (Xalqaro shartnomalar va davlat-xususiy sheriklik tashkilotlari)	21 659 ta	0-1 %	669 mlrd. so'm
JAMI:		53 219 ta	-	1,7 trln. so'm

2025-yil prognoz ma'lumotlariga ko'ra, jami 53,2 mingta korxonaga ijtimoiy soliq bo'yicha turli imtiyozlardan foydalanishi natijasida **1,7 trillion so'm** miqdoridagi mablag' Pensiya jamg'armasiga tushmay qolishi kutilmoqda. Ayniqsa, yuqori ish haqi fondiga ega bo'lgan IT va innovatsiyalar sohasidagi 1 475 ta texnopark rezidentiga 0 foizlik stavka qo'llanilishi natijasida 893 milliard so'm miqdoridagi ijtimoiy soliq tushumlari jamg'armaga kelib tushmaydi. Bu yo'qotishlar jamg'armaning yillik daromadlar hajmiga nisbatan sezilarli ulushni tashkil etib, tizimdagi defitsit dinamikasiga o'zining bevosita salbiy ta'sirini ko'rsatadi.

Ijtimoiy soliq stavkasi dinamikasi

2-jadval va 1-rasmda ko'rsatilganidek, 2018 yilda 25 foiz bo'lgan ijtimoiy soliq stavkasi 2019 yildan boshlab 12 foizga tushirilgan va shu darajada saqlanib qolgan.

2-jadval.

Ijtimoiy soliq stavkasi va tushumlar dinamikasi (2012–2025-yillar)⁷

Yillar	Pensiya jamg'armasi daromadi (trln so'm)	Daromadning yillik o'sish sur'ati (%)	Ijtimoiy soliq stavkasi (%)
--------	--	---------------------------------------	-----------------------------


⁶ Ma'lumotlar asosida muallif tomonidan mustaqil tuzildi

⁷ Ma'lumotlar asosida muallif tomonidan mustaqil tuzildi

2012-yil	7	—	25
2016-yil	14	+ 100%	25
2018-yil	20	+ 42,9%	25
2019-yil	26	+ 30,0%	15 / 12
2020-yil	32	+ 23,1%	12
2021-yil	37	+ 15,6%	12
2022-yil	45	+ 21,6%	12
2023-yil	54	+ 20,0%	12
2024-yil	64	+ 18,5%	12
2025-yil	75	+ 17,2%	12

Biznes muhitini yaxshilash, investitsiyalarni rag'batlantirish va yashirin iqtisodiyotni qisqartirish maqsadida 2019-yildan boshlab xususiy sektor uchun ijtimoiy soliq stavkasi 25 foizdan 12 foizgacha pasaytirilgan. Qisqa muddatda ushbu chora korxonalar zimmasidagi fiskal yukni yengillashtirib, mehnatga haq to'lash fondini legallashtirishga rag'bat yaratgan bo'lsa-da, moliyaviy jihatdan Pensiya jamg'armasining daromadlar bazasini nisbatan toraytirgan.

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, garchi daromadlar nominal jihatdan o'sishda davom etayotgan bo'lsa-da (2019-yildagi 26 trln so'mdan 2024-yilda 64 trln so'mgacha), stavkaning keskin pasaytirilishi oqibatida ularning yillik o'sish sur'atlari pasaygan (30% dan 18,5% gacha tushgan) va iqtisodiyot o'sishi bilan jamg'arma tushumlari o'rtasidagi mutanosiblik buzilgan. Bu esa daromadlar o'sish sur'atining xarajatlar o'sishidan ortda qolishiga ("daromad-xarajat qaychisi" effektiga) olib kelgan.




1-rasm. Ijtimoiy soliq stavkasi dinamikasi (2018–2024)⁸

⁸ Ma'lumotlar asosida muallif tomonidan mustaqil tuzildi

Grafikdan ko'rinadiki, stavka bir yil ichida deyarli ikki barobarga qisqargan. Bu mehnat xarajatlarini kamaytirgan bo'lsa-da, ijtimoiy sug'urta fondi daromadlariga bosim o'tkazgan.

Ijtimoiy soliq tushumlarining YAIMga nisbati

2-rasm va 3-rasm ma'lumotlari ijtimoiy soliq tushumlarining YAIMga nisbati stavka pasaytirilganidan so'ng pasayish tendensiyasiga ega ekanini ko'rsatadi.




2-rasm. Ijtimoiy soliq tushumlari (YAIM o'sishiga nisbatan dinamikasi, 2012–2025-yillar)⁹

Makroiqtisodiy jihatdan ijtimoiy soliq tushumlarini YAIMga nisbatan baholash tizim qamrov darajasini aniqlash imkonini beradi. Agar tushumlar YAIM o'sish sur'atlariga mos ravishda ortib borsa, bu daromadlar bazasining iqtisodiy kengayish bilan uyg'unlashayotganini ko'rsatadi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, aksariyat yillarda ijtimoiy soliq tushumlari YAIMning nominal o'sish sur'atlariga yaqin dinamikada harakatlangan.

Aksincha, ayrim davrlarda tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash maqsadida berilgan imtiyozlar hamda ijtimoiy soliq stavkasining pasaytirilishi natijasida soliq tushumlari o'sishi YAIM dinamikasidan ortda qolgan holatlar kuzatilgan. YAIM o'sishi bilan soliq tushumlari o'rtasidagi tafovutning ortib borishi bevosita soliq imtiyozlari, norasmiy sektor ulushining yuqoriligi yoki mehnat bozorida tarkibiy nomutanosibliklar bilan izohlanadi.

Garchand soliq yukining kamaytirilishi qisqa muddatda iqtisodiy faollikni rag'batlantirgan bo'lsa-da, u jamg'arma daromadlarining nisbiy o'sish sur'atini pasaytirgan. Qolaversa, tarkibiy tahlillar ijtimoiy soliq tushumlarining asosiy qismi yirik va o'rta korxonalar hisobiga shakllanayotganini, kichik biznes va o'zini o'zi band qilganlar hissasi nisbatan pastligicha qolayotganini (ya'ni daromadlar bazasi yetarlicha diversifikatsiya qilinmaganligini) ko'rsatmoqda.

⁹ Ma'lumotlar asosida muallif tomonidan mustaqil tuzildi



3-rasm. Ijtimoiy soliq tushumlari YAIMga nisbatan (2018–2024)¹⁰

YaIMga nisbatan tushumlar 2018 yildagi 5,4 foizdan 2024 yilga kelib 4,5 foizgacha kamaygan. Bu deyarli 1 foiz punktluk pasayish boʻlib, makroiqtisodiy miqyosda sezilarli daromad yoʻqotilishini anglatadi.

IT sektoridagi nomutanosiblik Ayniqsa yuqori maoshli IT sektorida 0% stavkaning qoʻllanilishi ijtimoiy sugʻurta tamoyiliga zid moliyaviy nomutanosiblikni yuzaga keltirgan. Chunki ushbu sektorda ishlovchilar kelgusida pensiya huquqiga ega boʻladi, biroq ular tomonidan jamgʻarmaga badal toʻlanmaydi. Bu PAYG tizimida “hissa qoʻshmasdan majburiyat shakllanishi” muammosini keltirib chiqaradi. Shunday qilib, oʻtkazilgan hisob-kitoblar va grafik tahlillar ijtimoiy soliq stavkalarini keskin pasaytirish hamda keng koʻlamli imtiyozlar berish Pensiya jamgʻarmasi daromadlar bazasining torayishiga olib kelganini tasdiqlaydi. Investitsion siyosat qisqa muddatda iqtisodiy oʻsishni ragʻbatlantirgan boʻlsa-da, ijtimoiy sugʻurta tizimining fiskal barqarorligi nuqtai nazaridan muvozanatni talab qiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Oʻtkazilgan tahlillar shuni koʻrsatdiki, soʻnggi yillardagi soliq islohotlari iqtisodiy faollikni ragʻbatlantirish, investitsion muhitni yaxshilash va biznes yukini kamaytirishga xizmat qilgan boʻlsa-da, ularning ijtimoiy sugʻurta tizimi daromadlar bazasiga taʼsiri yetarlicha baholanmagan. Ijtimoiy soliq stavkasining 25 foizdan 12 foizgacha pasaytirilishi hamda ayrim sektorlar, xususan IT sohasi uchun 0 foizlik stavkaning joriy etilishi Pensiya jamgʻarmasining barqaror tushum manbalarini toraytirgan.

Natijada investitsion siyosat va ijtimoiy sugʻurta tamoyillari oʻrtasida muayyan nomutanosiblik yuzaga kelgan. Bir tomondan, iqtisodiyotni modernizatsiya qilish va yuqori texnologiyali sohalarni qoʻllab-quvvatlash uchun soliq yukini kamaytirish zarur. Ikkinchi tomondan, PAYG modeliga asoslangan pensiya tizimi joriy badallar hisobidan moliyalashtirilgani sababli, stavka pasayishi yoki imtiyozlar kengayishi toʻgʻridan-toʻgʻri daromadlar kamayishiga olib keladi. Bu esa uzoq muddatda davlat byudjetidan transfertlar hajmini oshirish zaruratini tugʻdiradi va umumiy fiskal barqarorlikka xavf soladi.

¹⁰ Maʼlumotlar asosida muallif tomonidan mustaqil tuzildi

Shu nuqtai nazardan, minimal ijtimoiy soliq bazasini joriy etish maqbul va muvozanatli mexanizm sifatida taklif etiladi. Mazkur mexanizmga ko'ra, ijtimoiy soliq stavkasi imtiyozli yoki nol darajada belgilangan taqdirda ham, har bir xodim yoki ish haqi fondi bo'yicha ma'lum minimal miqdorda ijtimoiy sug'urta badali to'lanishi shart etib belgilanadi. Bu yondashuv investitsion imtiyozlarni to'liq bekor qilmasdan turib, ijtimoiy sug'urta tizimi uchun minimal daromad kafolatini yaratadi.

Hisob-kitoblarga ko'ra, agar minimal ijtimoiy badal mexanizmi joriy etilsa, yiliga o'rtacha 507 mlrd so'm qo'shimcha tushum shakllantirish mumkin. Ushbu qo'shimcha mablag' Pensiya jamg'armasi defitsitini qisqartirish, davlat byudjetidan transfertlar bosimini kamaytirish va tizimning moliyaviy mustaqilligini oshirishga xizmat qiladi. Bundan tashqari, minimal badal tizimi ijtimoiy adolat tamoyillarini ham mustahkamlaydi, chunki yuqori daromadli xodimlar kelgusida pensiya huquqiga ega bo'lgan holda, hech bo'lmaganda minimal darajada tizimga hissa qo'shadi.

Taklif etilayotgan siyosiy choralar quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- imtiyozli sektorlar uchun minimal ijtimoiy sug'urta badali miqdorini belgilash;
- ijtimoiy soliq tushumlarini sektorlar kesimida monitoring qilish va ochiq statistik hisobot yuritish;
- investitsion imtiyozlarni berishda ularning ijtimoiy sug'urta tizimiga fiskal ta'sirini majburiy baholash;
- yuqori daromadli sektorlar uchun progressiv yoki kombinatsiyalangan badal mexanizmlarini ko'rib chiqish.

Xulosa qilib aytganda, ijtimoiy soliq siyosati nafaqat investitsion jozibadorlikni oshirish, balki pensiya tizimi barqarorligini ta'minlashga ham xizmat qilishi zarur. Soliq imtiyozlari va fiskal rag'batlar qisqa muddatli iqtisodiy o'sishni qo'llab-quvvatlashi mumkin, biroq ularning ijtimoiy sug'urta tizimiga ta'siri inobatga olinmasa, uzoq muddatli fiskal nomutanosiblik yuzaga keladi. Shu sababli, ijtimoiy soliq siyosatini investitsion strategiya va pensiya tizimi barqarorligi o'rtasida muvozanatni ta'minlovchi kompleks mexanizm sifatida qayta ko'rib chiqish zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

- [1.] Barr N., Diamond P. Reforming pensions: Principles and policy choices. – Oxford: Oxford University Press, 2008. – 326 p.
- [2.] Holzmann R., Hinz R. Old-age income support in the 21st century: An international perspective on pension systems and reform. – Washington DC: World Bank, 2005. – 382 p.
- [3.] OECD. Pensions at a Glance 2023: OECD and G20 Indicators. – Paris: OECD Publishing, 2023. – 220 p.
- [4.] World Bank. World Development Report 2019: The Changing Nature of Work. – Washington DC: World Bank, 2019. – 151 p.
- [5.] ILO. World Social Protection Report 2020–22: Social protection at the crossroads. – Geneva: International Labour Organization, 2022. – 412 p.
- [6.] IMF. Fiscal Monitor: Helping People Bounce Back. – Washington DC: International Monetary Fund, 2021. – 94 p.

- [7.] Schneider F., Enste D. Shadow economies: Size, causes, and consequences // *Journal of Economic Literature*. – 2000. – Vol. 38. – No. 1. – P. 77–114.
- [8.] Feldstein M. Social security and saving: The extended life cycle theory // *American Economic Review*. – 1974. – Vol. 64. – No. 2. – P. 905–926.
- [9.] Diamond P. National debt in a neoclassical growth model // *American Economic Review*. – 1965. – Vol. 55. – No. 5. – P. 1126–1150.
- [10.] Engle R., Granger C. Co-integration and error correction: Representation, estimation, and testing // *Econometrica*. – 1987. – Vol. 55. – No. 2. – P. 251–276.
- [11.] Pesaran M. H., Shin Y., Smith R. Bounds testing approaches to the analysis of level relationships // *Journal of Applied Econometrics*. – 2001. – Vol. 16. – No. 3. – P. 289–326.
- [12.] OECD. *Taxing Wages 2022*. – Paris: OECD Publishing, 2022. – 450 p.
- [13.] IMF. *Revenue Mobilization in Developing Countries*. – Washington DC: International Monetary Fund, 2011. – 68 p.
- [14.] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 30 dekabrda PQ-4555-son qarori.
- [15.] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvarda PF-60-son Farmoni.
- [16.] O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi. – Toshkent, 2023.
- [17.] O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi. *Davlat byudjeti ijrosi to‘g‘risidagi hisobotlar*. – Toshkent, 2024.
- [18.] O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi. *O‘zbekistonning demografik yillik to‘plami*. – Toshkent, 2024.
- [19.] Berkinov B. B., Qalimbetov M. M. O‘zbekistonda pensiya ta‘minoti tizimini takomillashtirish masalalari // *Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar*. – 2021. – № 5. – B. 12–20.
- [20.] Toshmatov Sh. Pensiya jamg‘armasi daromadlarini shakllantirishda soliq siyosatining o‘rni // *Moliya va bank ishi*. – 2022. – № 3. – B. 45–51.
- [21.] Vahobov A. *Ijtimoiy sohani moliyalashtirish metodologiyasi*. – Toshkent: Iqtisod-Moliya, 2019. – 280 b.
- [22.] Tanzi V., Zee H. *Tax policy for emerging markets: Developing countries* // IMF Working Paper. – 2000. – No. 00/35.
- [23.] World Bank. *Uzbekistan Public Expenditure Review*. – Washington DC: World Bank, 2023.
- [24.] OECD. *The Role of Social Security Contributions in Labour Taxation*. – Paris: OECD Publishing, 2021.
- [25.] ILO. *Financing Social Protection: Options and Challenges*. – Geneva: International Labour Organization, 2018.

Copyright: © 2026 by the authors. This work is licensed under a Creative Commons Attribution-4.0 International License (CC - BY 4.0)

